


“O‘zkiymyosanoat” AJ “InnoWeek-2025” haftaligida o‘zining ilg‘or innovatsion mahsulotlarini namoyish etmoqda

// 10.10.2025

<https://uzkiymyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkiymyosanoat-aj-innoweek-2025-haftaligida-o-zining-ilg-or->



Toshkent shahridagi “SAEX Uzbekistan” ko‘rgazma majmuasida VIII Innovatsion g‘oyalar xalqaro haftaligi — “InnoWeek-2025” o‘z ishini boshladi. “Chegarasiz g‘oyalar” shiori ostida o‘tkazilayotgan mazkur tadbir mamlakatimizda innovatsion rivojlanishni jadallashtirish, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ilg‘or texnologiya va innovatsiyalarni keng joriy etish, inson kapitali, ilm-fan va innovatsion salohiyatni rivojlantirishga qaratilgan.



Innovatsion haftalik sohaning yetakchi vakillari, hamkor tashkilotlar, xalqaro ekspertlar hamda investorlar o'rtasida tajriba almashish, hamkorlikni mustahkamlash va yangi loyihalarni amalga oshirish uchun muhim platforma bo'lib xizmat qilmoqda.



"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati va tarmoq korxonalari ham "InnoWeek-2025" doirasida o'zlarining zamonaviy, yuqori qo'shilgan qiymatga ega innovatsion mahsulotlari bilan ishtirok etmoqdalar.



Jumladan, tog'-kon sanoati uchun mo'ljallangan qo'rg'oshin nitrat, rux nitrat, natriy tetraboray, shuningdek, laboratoriya tahlillari uchun ishlatiladigan natriy atsetat, Mor tuzi va Nessler reaktivi kabi mahsulotlar ishtirokchilar va mutaxassislar tomonidan katta qiziqish bilan qarshi olinmoqda.



Umuman, "InnoWeek-2025" haftaligida 400 ga yaqin innovatsion loyiha va ishlanma namoyish etilmoqda. Tadbir innovatsiya sohasidagi eng so'nggi yutuqlarni keng jamoatchilikka yetkazish va amaliyotga joriy etishda muhim qadam hisoblanadi.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati